

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

2024

# Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at [www.imfaktor.com](http://www.imfaktor.com)

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ - 2024

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-2>

## Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

## Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

*“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатиغا мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.*

**Таҳририят манзили:** Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор  
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

**Телефон номер:** +99894-410 11 55, **E-mail:** [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

**ZARIPOVA Zilola Erkin qizi**  
*Osiyo xalqaro universiteti*  
*magistranti*

**ELOV Ziyodullo Sattorovich**  
*Buxoro davlat universiteti*  
*Psixologiya fanlari doktori (DSc)*  
*dotsent*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10654705>

## DINIY TA'LIMOTLAR VA HADIS-SHAXS SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA

### ANNOTATSIYA

Bu maqolada, xalqimizning diniy-ma'rifiy sohada bilim saviyasini oshirish, diniy va dunyo bilimlarini moslashtirish asosida ta'lim sifatini ta'minlash, diniy-ma'rifiy sohadagi malakali kadrlarni tayyorlash, fuqarolarning diniy ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini, fuqarolarining xorijiy-diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olishning huquqiy asoslarini o'rganish uchun normativ va huquqiy hujjatlar haqida qisqacha muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** diniy-ma'rifiy, bilim, pedagog, psixolog, hadis, shaxs, ta'limot, malakali, fuqaro, ta'lim, dunyoviy, muassasa.

## РЕЛИГИОЗНОЕ УЧЕНИЕ И ХАДИСЫ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье мы стремимся повысить уровень знаний нашего народа в религиозно-просветительской сфере, обеспечить качество образования на основе адаптации религиозных и мировых знаний, подготовить квалифицированные кадры в религиозно-просветительской сфере, а также удовлетворения потребностей граждан в религиозном образовании, кратко будут рассмотрены нормативно-правовые документы по изучению правовых основ получения образования в зарубежных религиозных образовательных учреждениях своих граждан.

**Ключевые слова:** религиозно-просветительское, знание, педагог, психолог, хадис, человек, учение, квалифицированный, гражданин, образование, светское, учреждение.

## RELIGIOUS TEACHINGS AND HADITH AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTOR IN THE FORMATION OF PERSONALITY

### ANNOTATION

In this article, we aim to increase the level of knowledge of our people in the religious-educational field, ensure the quality of education based on the adaptation of religious and world knowledge, train qualified personnel in the religious-educational field, and meet the needs of citizens for religious education. The normative and legal documents to study the legal basis of education in foreign-religious educational institutions of its citizens will be briefly discussed.

**Key words:** religious-educational, knowledge, pedagogue, psychologist, hadith, person, teaching, qualified, citizen, education, secular, institution.

Bugungi kunda mamlakatimizda Ona O‘zbekiston tarixiy rivojlanishining yangi bosqichga o‘tayotgan, kelajagimizning muhim egalari bo‘lgan farzandlarimizning ma‘naviy barkamolligi barcha uchun ahamiyatga ega. Jamiyatimizda har bir fuqaro o‘z ma‘naviyati, odob-axloqi inson sifatidagi shaxsiy rivoji va uni bugungi kundagi kamoloti, shaxs va jamiyatdagi manfaatlarini uyg‘unligi har qachon muhim qadriyat sifatida chuqur o‘rganilmoqda. Tinch va farovon yurtimizda o‘z kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mukammal, irodali, mustahkam, sof vijdonli, chuqur bilimli va yuksak salohiyatli qilib kamolga yetishi uchun avvalo ularni iymonli, o‘z diniga bo‘lgan e‘tiqodini mustahkam, ma‘naviyati boy, dunyoqarashi keng qilib tarbiyalashimiz zarurdir.

Hozirgi zamon psixologiyasi inson shaxsining o‘zini shakllantirishi, psixik rivojlanishi uchun asoslanadi, shuningdek shaxsiy xususiyatlarni anglash, xarakter va shaxsiylikning boshlang‘ich yillaridan boshlab shakllanishi kabi jarayonlarga ega. Jamiyat, farzandlarimizni kelajagidan umidvor bo‘lgan burch va vatandoshlarimizni shaxsini kamolga yetkazishda pedagogik-psixologik qarashlar asosida yordam berishi kerakligiga ishora qiladi. Bu maqsadda quyidagi amaliy takliflar mavjud:

a) Bugungi kunda tarbiyalayotgan shaxsni, ya‘ni, farzandni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va shaxs sifatida rivojlantirish bosqichlarini o‘rganish kerak.

b) Ularga umumiy insoniy va diniy qadriyatlarimizni, ya‘ni, Islom dinini, yoshlarimizning o‘ngi va shuurga pedagogik-psixologik qarashlar va davlat qonun-qoidalariga muvofiq tushuntirish va yo‘nalishlar berish zarur.

c) Yoshlarimizni ma‘naviy-axloqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bu tizimni samarali rivojlantirish kerak [1, 9].

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi, ularning kamoloti, aqliy qobiliyati va dunyoqarashi taraqqiyotiga bo‘lgan e‘tibor va bu sohada ilmiy izlanishlar uzoq o‘tmish tarixga borib taqaladi. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan inson shaxsining psixologik qonuniyatlarini muayyan aniq bir ilmiy jihatdan o‘rganilmagan bo‘lishi ham mumkin, biroq allomalarimizning yozgan qo‘lyozmalarida inson shaxsining yaxlit psixik holatlarini namoyon bo‘lishi va inson kamoloti borasidagi ularning o‘z davrida bildirgan qimmatli fikrlari bugun o‘z isbotini topgan. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlarda yoshlarning ta‘lim va tarbiyasi diniy va dunyoviy bilimlari bilan bog‘liq psixologik muammolarini yirik olimlar, faylasuflar va yozuvchilar tomonidan muntazam ravishda o‘rganilib kelingan.

Buyuk alloma, hadisshunos olim Imom Al-Buxoriy to‘plagan hadislarni o‘qiganimizda, shunday jumlar yozilgan:

Insonni ma‘naviy pokligiga, axloqiy komilligi haqida yozgan satrlarida insonning haqiqiy musulmon hamda iymonli, vijdonli o‘z diniga etiqodli va xalqiga, oilasiga diyonatli bo‘lishga davo etadi. Imom Al-Buxoriy ta‘kidlashicha: Islom dini o‘zida uchta xislatni mujassam etgan insonni iymoni butun, fikri teran, irodasi mustahkam va barcha qilgan ibodatlarini mukammal hisoblagan.

a) Insofli va o‘z xalqiga adolatli bo‘lish.

b) Har qanday kishiga har qanday holatda xoh boy, xoh miskin holatda bo‘lishiga qaramay musulmon ahlidek salom berish.

c) Kambag‘al bo‘lishiga qaramay o‘zi qatori kishilarga va miskinlarga Alloh yo‘lda xayriya berishni ta’kidlagan. Islom dinida inson etiqodi Allohni tan olish, uni yagona deb bilish, etiqodda doim qalban va ruhan mustahkam bo‘lish, "La ilaha illalloh" deyish qayd etilgan [2, 3].

Ibn Sino tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratgan va tarbiyada suhbat metodini tavsiya qilgan. Agar bolalar guruhlar tashkil etib tarbiyalansa, bilim va ko‘nikmalar o‘qitilsa, ularda moslashish, bir-biriga hurmat ko‘rsatish, keraksiz odatlarni yo‘qotish, bilimga tashnalik, mehr-muhabbat hissi, bir-biriga hurmat e’tibori oshadi. Oila tarbiyasi va bola tarbiyasini oshirishda psixologik regional xususiyatlarni qo‘llash muhimdir.

Ibn Sino "Axloq qonuni" asarida shaxs xarakterining umumiy xususiyatlarida salbiy va ijobiy sifatlarning paydo bo‘lish sabablarini ochib berdi. U odat va davlat zodagonlarining ta’sirida bu sifatlarning paydo bo‘lishini ko‘rsatdi. Ibn Sino adolat, saxovat, sabr-toqat, mas’uliyat, vafo, vazminlik, hayo va boshqa fazilatlarga izoh berdi. Uning fikriyatiga ko‘ra, ilmi odam har jihatdan halol bo‘lishi va boshqalarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishi kerak. U o‘z hayoti uchun muhim deb hisoblagan adolat, poklik kabi ijobiy fazilatlarga izoh berdi, qo‘rquv, ikkiyuzlamachilik, baxillik, o‘g‘irlik, firibgarlik kabi salbiy kamchiliklarni ham ochib berdi.

Ibn Sino tarbiyaviy dasturga asoslanib, do‘stlikning 3 turini ajratib ko‘rsatdi: birinchidan, inson qanchalik qiyin bo‘lmasin, do‘stini tashlab ketmaslikka harakat qiladi; ikkinchidan, mafkuraviy do‘stlik, yani umumiy manfaatlarga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi do‘stlik; uchinchidan, foyda va manfaatdan kelib chiqadigan do‘stlikdir. Olim haqiqiy do‘stni oynaga qiyoslaydi, chunki ko‘zgu insonning haqiqiy haqiqatini ko‘rsatadi [8, 9].

Ibn Sino, insonga xos psixologik jihatlar haqida o‘z fikrlarini ifodalagan va shaxs xarakterini shakllantirishga yordam beruvchi odatlar, iroda, temperament, va boshqa omillar haqida o‘z mulohazalarini bayon etgan. U shaxsning shakllangan xarakterini o‘zgarimas deb hisoblagan qadimgi an’analardan farqli ravishda, bu muammoga boshqacha yechimlar taklif etdi. Ibn Sino ta’limoti bo‘yicha, shakllangan xarakter xususiyatlari hayotning etuk davrida turmush sharoiti va shaxsning o‘zi irodasi ta’sirida o‘zgarishi mumkin deb o‘yladi. U ixtiyoriy sa’y-harakatlarning ta’siri bilan shaxsning xarakterining o‘zgarishini temperamentning o‘zgarishi bilan bog‘laydi.

Ibn Sino, shaxsning qobiliyati va ma’rifiyatini aniqlash uchun miqdoriy va sifat o‘lchash usullaridan foydalanadi. U kamolotga erishishning birinchi mezonini ma’rifatni egallashga da’vat etdi. Chunki ilm-fan insonni xizmat qilish va tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishni talab etadi.

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, insonlar botirlik va qo‘rqishmaslikning belgisidirlar. Ular qo‘rqmaslik va qo‘rqishmaslik o‘rtasida farq qiladilar. Komil inson jasur, o‘limdan ham qo‘rqmasligan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘lishi kerak. Bilimsiz, ilimsiz insonlar johil bo‘ladilar. Ular haqiqatni bilmaydilar va tan olmaydilar. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish zarur. Ibn Sino, insonlarning haqiqatni bilish uchun mantiqni bilishlari kerakligini ta’kidlaydi. Inson aloqaga muhtoj ekan hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun muomila madaniyatini ko‘rsatdi. Muomila bo‘lmasa, ming qilsa ham befoydali emas [4, 5].

*Muhokama va natijalar. Bugun biz pedagoglar, ota-onalar, va yoshlarimizga farzandlarimizga islom dini va dunyoviy bilimlarni chuqur qalblariga, ongiga, ruhida singdirish lozimligini o‘rgatishga muhtojmiz. Avvalgi aytib o‘tilgan holatda, Imom Al-Buxoriyning musulmon ahlidek salom berishning joizligi aytilmoqda. Bugun oilada, mahallada, ta’lim tizimida, insoniyatning har qanday sohalarida yoshlarimizga oddiygina insonlar e’tibor qilmaydigan salom berish adabiyotini yoshlarimiz tarbiyasida ko‘proq takror-takror amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.*

Oddiygina salom berish islomda musulmonlik darajasini ko‘zga solgan axloqdek ko‘rinadi.

Psixologiyada salom berish, inson tushunchasi va ong psixologiyasini muvaffaqiyatli tasvirlayadi. Psixologik ravishda salom berishning iki asosiy tomoni bor:

a) Jahldor, agressiv holatdagi insonga salom berilsa, uning jahlini kamaytirishi va tinchlikka qaytishi mumkin. Inson psixik holatida tana va ruh jarayonidagi yuzaga kelgan tortishishni oldini olaydi.

b) Oilada shaxslararo munosabatlarda ota-o‘g‘il orasidagi ziddiyatda, salom farzand bilan ota o‘rtasidagi mehri, hurmatni, va ko‘ngildagi g‘arazni to‘xtatishi ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Din va psixologiya insoniyatning mavjudligida doim bir yo‘nalishda, bir-biriga bog‘liqdir.

Takliflar va yechimlar:

O‘quvchilarga, ota-onalar va pedagoglar tomonidan islom dinimiz haqida farzandlarga tushunchalar berishni to‘g‘ri tashkil etish.

Ta‘lim tizimidagi darsliklarda Imom Al-Buxoriy hadislari, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy va Jaloliddin Rumiyning hikmatlaridan ko‘proq foydalanishni maqsadga muvofiq hisoblayman.

Xulosa o‘rnida, o‘qib kitobga ishonch hissiyotini o‘rnatish, uni sevish va undan ardoqo‘shishni o‘rgatish juda muhimdir. Kitoblar o‘quvchilarga dunyoqarashlarini kengaytirish, fikr ko‘rsatish va ularning ko‘nikmalari bilan qarorlar qabul qilish xilatiga ega bo‘lishda katta rol o‘ynaydi. Kitob o‘qigan kishi jamiyatiga, oilasiga, mamlakatiga, millatiga xorijiy hissasiyetni kuchaytiradi.

Aksariyat bilimlar bilan shug‘ullanish, insonning xususiyatlari va mamlakatning ma‘naviyatini tushuntiradi. Shuningdek, shaxsni tarbiyalashda kitoblar ahamiyatli arolardan biri hisoblanadi, chunki kitoblar insonning bilimini, tushunchalarini, vaqtincha ko‘rganlarini yoritadi. Bundaylik bilan, kitoblar haqida gapirish, bir so‘z bilan aytganda, kelajagi haqida g‘oyalar bilan bog‘liqdir. Va shuningdek, Abu Ali ibn Sino dunyoviy ilmlarni o‘rganish, ta‘lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rinni egallagan. U yoshlar uchun ilmni izlashni va ularning komil inson bo‘lishiga yo‘l qo‘ymoqda. Ibn Sino psixologiya sohasidagi fikrlari bilan psixologiya fanining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan.

## ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Shayx Abdulaziz Mansur. "Dinda savolim bor".- Toshkent.: Movarounnahr nashriyoti.-138-sahifa. WWW.gglit.uz, e-mail: [iptdgulom@sarkor.uz](mailto:iptdgulom@sarkor.uz)
2. Parviz Morewedge. the metaphysical of Avicenna (Ibn Sina)" New York 2004, 141
3. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o`gitlar.-Mehnat, 1991
4. Raximova R.B "O`rta asr sharq olami yetuk mutaffakiri Abu Nasr Farobiy asarlaridagi pedagogik- psixologik qarashlari" Научный импульс № 4 (100) Ноябрь 2022 г, Часть 4 2022
5. Raximova R.B "THEORETICAL OVERVIEW OF THE PERSONALITY OF THE LEADER" Proceedings of 4th International Multidisciplinary Scientific Conference on Innovative Technology Hosted from San Fransisco, USA 2021
6. Bekmirov, T. R., Melabayeva, R. N., Axmedova, M. E., & Nurmatov, A. N. (2022). Kasbiy pedagogika
7. Baxtiyarovna, S. D., & Jamshidzoda, B. V. (2022). QOBILIYAT RIVOJLANISHIGA TA`SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR. Scientific Impulse, 1(3), 377-380.
8. J.Qodirov, Z.Elov. [Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda globallashuv jarayonining ta`siri](#). Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2024 2 (1), 47-52
9. O.Mamatov., Z.Elov. [Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari](#). 2024 Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42



ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)